

Xidoyatxon Abdinazarova,

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, g.f.f.d (PhD)

**FARG‘ONA VILOYATI SANOATINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI
VA TARKIBI**

Annotatsiya. Maqola Farg‘ona viloyati sanoatining 2023 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari va hududiy tarkibidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bunda Farg‘ona viloyatining respublika sanoatida tutgan o‘rni, asosiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va hududiy tarkibi iqtisodiy geografik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot so‘nggida mavzu yuzasidan xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, viloyat, tarmoq tarkibi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, hududiy tarkib, tuman.

Хидоятхон Абдиназарова,

Доцент Кокандского государственного университета,

кандидат географических наук

**ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ И СОСТАВ ПРОМЫШЛЕННОСТИ
ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

Аннотация. Статья посвящена анализу основных показателей и изменений территориальной структуры промышленности Ферганской области в 2023 году. В ней проанализированы место Ферганской области в промышленности республики, объемы производства основных видов промышленной продукции и территориальная структура с экономико-географического аспекта. В конце исследования даны выводы и рекомендации по теме.

Ключевые слова: промышленность, регион, отраслевая структура, объем производства промышленной продукции, территориальная структура, район.

Khidoyatkxon Abdinazarova,

MAIN INDICATORS AND COMPOSITION OF THE INDUSTRY OF FERGANA REGION

Annotation. The article is devoted to the analysis of the main indicators and changes in the territorial structure of the industry of the Fergana region in 2023. In this, the place of the Fergana region in the republic's industry, the volume of production of the main industrial products and the territorial structure were analyzed from an economic and geographical perspective. At the end of the study, conclusions and recommendations on the topic are given.


Keywords: industry, region, sectoral structure, volume of production of industrial products, territorial structure, district.

Kirish. Keyingi yillarda O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaymoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024 yil, 7 avgustdagi “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 286- sonli Qarori qabul qilingan. Unda “...O‘zbekiston Respublikasiga sanoat sohasidagi nufuzli xalqaro brendlarni jalb qilish bo‘yicha yangicha yondashuvlarni joriy qilish, xalqaro brendlar ostida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh milliy brendlarni yaratishni yanada rag‘batlantirish hamda bu borada tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash” maqsadi belgilangan [1]. Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston iqtisodiy geografiyasida sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va hududiy tarkibidagi o‘zgarishlarni Farg‘ona viloyati sanoati misolida geografik o‘rganish orqali ulardagi muammolarni aniqlash, ilmiy xulosalar ishlab chiqish dolzarb sanaladi.

Asosiy qism. 2023-yil davomida Farg‘ona viloyati sanoat korxonalari tomonidan qariyb 32 trln so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi (2022-yilga nisbatan o‘sish 3–4% atrofida). Sanoat ishlab chiqarishining ichki tarkibida ishlab chiqaruvchi sanoat (qayta ishlash sanoati) ulushi 92 –93%ga teng bo‘lib, tog‘-kon qazib olish ulushi atigi 0,6%, elektr-issiklik ta‘minoti ulushi 5–6% ni tashkil etdi.

Qayta ishlash sanoati ichida yetakchi tarmoqlar – to‘qimachilik sanoati (taxminan 30%), oziq-ovqat sanoati (14%), qurilish materiallari (nometall mineral mahsulotlar) (13%) hamda kimyo sanoati (13% ga yaqin) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Quyidagi diagrammada viloyat ishlab chiqaruvchi sanoati tarkibidagi eng yirik to‘rtta tarmoq va boshqa sohalarning ulushi ko‘rsatilgan.


1-rasmda keltirilgan ma’lumotlar asosida viloyatda eng yuqori ulushli tarmoq to‘qimachilik (30 %) sanoati hisoblanadi. Keyingi o‘rinni oziq-ovqat (14 %), qurilish materiallari – asosan sement, ohak, g‘isht kabi nometall mahsulotlar (13%)ni va kimyo sanoatining ulushi (13%)ni, qolgan barcha tarmoqlar (“boshqa”) ulushi 30 foizdan ziyodroqni tashkil etadi.



**1-rasm. Far‘ona viloyati ishlab chiqaruvchi sanoat tarkibi
(01.01.2023 y. holatiga, foiz hisobida)**

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hududlar bo‘yicha notekis taqsimlangan. Asosiy ishlab chiqarish quvvatlari yirik shaharlarda jamlangan bo‘lib, Farg‘ona shahri viloyat sanoat mahsulotining salkam to‘rtidan bir qismini (26,4%) bermoqda, Qo‘qon shahri hissasi qariyb 17,6%ni tashkil etadi. Yirik sanoat korxonalari joylashgan ba’zi tumanlar ham sanoatda katta ulushga ega – masalan, Uchko‘prik tumani (8,1%), Toshloq tumani (7,4%) va Qo‘sh tepa tumani (6,5%) ulushlari yuqori. Quyidagi 2- rasmda viloyat sanoatida eng yuqori ulushga ega hududlar tasvirlangan. Farg‘ona viloyati sanoat ishlab chiqarishidagi eng yuqori ulushga ega hududlarga birinchi navbatda Farg‘ona va Qo‘qon shaharlari kiradi. Mazkur

shaharlar sanoat markazlari bo'lib, ular umumiy ishlab chiqarishning qariyb 44% ini beradi.



2-rasm. Farg'ona viloyati sanoat ishlab chiqarishda eng yuqori ulushga ega hududlar (01.01.2023 y., foiz hisobida).

Uchko'prik, Toshloq, Qo'shtepa kabi sanoatlashgan tumanlar esa keyingi o'rinlarda turadi.

Keyingi yillarda viloyatda sanoat korxonalari soni ham keskin oshib bormoqda. Masalan, 2023-yil 1 yanvar holatiga viloyatda 12 597 ta sanoat korxona ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 7 949 tasi (63%) faol ishlab turibdi. Bu ko'rsatkich 2000-yillar boshiga nisbatan bir necha barobar ko'pdir va bu tadbirkorlik muhitining jonlangani va kichik biznesning sanoatga keng kirib kelganini ko'rsatadi.

Xulosa. So'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar va investitsiya loyihalari Farg'ona viloyati sanoatini yangi bosqichga olib chiqdi. Sanoatning tarmoqlararo tarkibi muvozanatlashib, ilgari faqat xomashyo yetkazib beruvchi bo'lgan hudud endilikda yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan markazga aylanishi yo'lida jadal rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024 yil, 7 avgustdagi "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 286- sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5834287>.

2. Abdinazarova, H. O. "Фарғона иқтисодий районида ташкил этилган кимё саноат корхоналар фаолиятининг географик тавсифи." *Экономика и социум* 3-2 (94) (2022): 351-356. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=48281612>.
3. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan." *Экономика и социум* 9 (76) (2020): 3-7.
4. Abdinazarova X.O. Kimyo sanoati geografiyasi (Farg'ona iqtisodiy rayoni misolida). Monografiya. – Qo'qon "Art-Press" 2023 y., 120 b.
5. Abdinazarova Xidoyatxon, and Mo'minov Doniyor. O'zbekiston farmasevtika sanoatining rivojlanish tendensiyalari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. "*Journal of research and innovation*" 2.3 (2024): 54-59.
6. Abdinazarova, X. O., D. Mo'minova, and M. Dehqonova. "O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATINING TUTGAN O'RN VA UNDAGI O'ZGARISHLAR". *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 2. No. 12. 2023.
7. Boasson V., MacPherson A. The role of geographic location in the financial and innovation performance of publicly trade pharmaceutical companies: empirical evidence from the United States. // *Environment and Planning A* 2001, volume 33, pp. 1431-1444. <http://journals.sagepub.com/doi/10.1068/a3431>.
8. Жўраев Ш.С. Ўзбекистонда саноатни барқарор ривожлантиришнинг минтақавий хусусиятлари. Монография. – Т.; 2016. – Б. – 24.
9. Oripovna, Abdinazarova Xidoyatxon, and Abduvohidova Zumradxon. "Sectoral and Regional Characteristics of the Chemical Industry in Uzbekistan." *American Journal of Social and Humanitarian Research* 3.11 (2022): 333-338.
10. Komilova N., and Abdinazarova. H. O. "The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan." *Экономика и социум* 5-1 (84) (2021): 248-255.
11. To'xliyev N. O'zbek modeli: taraqqiyot tamoyillari. O'zME. 2014 yil, 264 b.

12. O'zbekiston sanoati. Statistik to'plamlari-2010-2023 й.